

SOHA TASHKILOTLARI, UMUMIY O’RTA TA’LIM MAKTAB VA OLIY TA’LIM MUASSASASI O’RTASIDA INNOVATSION HAMKORLIKNING SAMARASI

Jumayeva Rafoat Furqat qizi

Buxoro viloyati Jondor tumanidagi 46-umumiy o’rta ta’lim maktabi o’qituvchisi
rafoat@mail.ru

Qo’chqorova Dilsora Jalilovna

Buxoro viloyati Jondor tumanidagi 38 -umumiy o’rta ta’lim maktabi o’qituvchisi
dilsora@mail.ru

Xo’jayeva Moxinur Sharof qizi

Buxoro davlat universiteti talabasi xojayeva@mail.ru

Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa qishloq xo’jaligi sohasiga oid fanlarni o’tishda pedagogik texnologiya elementlarini qo’llash orqali talabalarning ushbu fanlarni o’zlashtirish darajasini orttirish va sohani yetakchi mutaxassisi bo’lish hozirgi kunning asosiy masalasidan biridir.

Qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishini yanada barqaror rivojlantirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, ularning unumdorligini oshirish va shu asosida qishloq xo’jaligi ekinlari hosildorligini oshirish, shuningdek, melioratsiya ishlarini tashkil qilish va moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish uchun zarur shart-sharoitlarini yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan bir qator farmon va qarorlar e’lon qilinganligidan ham ko‘rish mumkin.

Haqiqatan ham, bugungi kunda yosh avlodni kamol toptirishda barcha mas’ul hisoblanib davlatimiz tomonidan bu mas’uliyatli yetarli shart-sharoitlar yaratilgan va bu davlat siyosati darajasida ko‘tarilgan [2]. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda shuni ta’kidlash mumkinki, yoshlarni barkamol qilib tarbiyalashda hamkorlikning roli asosiy hisoblanib jumladan ta’lim muassasasi va tashkilotlar o’rtasida hamkorligini ta’minlashda avvalo rivojlanib kelayotgan yosh avlod ongida vatan muqaddas ekanligini singdirish hamda ularga to’g’ri yo’l – yo’riq ko’rsatishda ota-ona va mahalla, ta’lim muassasalari, tashkilotlar muhim o’ringa ega.

Inson, uning har tomonlama uyg’un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro‘yobga chiqarishning sharoitlarini va ta’sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o‘zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va

texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O‘zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

Ma’lumki, xalq ta’limining asosiy bo‘g‘inini uzluksiz ta’lim tizimi tashkil etadi. SHu sababli bu masalaga alohida diqqat-e’tibor qaratish darkor [1].

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o‘ziga xos yo‘lini tanlashi kadrlar tayyorlash tuzilmasi va mazmunini qayta tashkil etishni zarur qilib qo‘ydi va qator chora-tadbirlar ko‘rishni: "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonunni joriy etishni, yangi o‘quv rejalari, dasturlari, darsliklarini joriy etishni, zamonaviy didaktik ta’minotni ishlab chiqishni; o‘quv yurtlarini attestatsiyadan o‘tkazishni va akkreditatsiyalashni, yangi tipdagi ta’lim muassasalarini tashkil etishni taqozo etdi.

Shularni inobatga olgan holda “Ustoz – shogird” tizimida talabalarni jalb qilish quyidagi yutuqlarga erishiladi:

1. O‘z sohasi bo‘yicha korxonadagi yetuk mutaxassislariga shogird etib belgilanish orqali shu korxonadagi ishlab chiqarish jarayonlarini to‘liq o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

2. Ustoz tomonidan kasbga qiziqtirish va yo‘llash ishlari olib borilishi natijasida kasb sirlari va boshlang‘ich malakani egallaydilar.

3. Talabalar kafedra tomonidan belgilangan jadval orqali o‘qishdan ajralmagan holda sohaga doir amaliy ish, tajriba va ko‘nikmalarini shakllantirib, o‘qishni tugatganlaridan so‘ng sinov muddatlarisiz ishlab chiqarish korxonalarida ishlashlari uchun zamin yaratadilar va h.k.

SHuningdek, talabalar belgilangan tashkilotlarida o‘rganish jarayonida sohaga oid mavjud muammolarni aniqlab, o‘z bitiruv malakaviy ishlarini bajarishga asos qilib olayotganlari fikrimizning yaqqol dalilidir. Bitiruv malakaviy ishlaridagi muammoli mavzular aynan biriktirilgan tashkilotlar miqyosida o‘rganilib, muammolarning yechim yo‘llari, sohani rivojlantirishga oid yaxshi taklif va mulohazalarning ustozlar bilan birgalikda ilgari surilayotganligi ijobiy natijadir. Kelgusida iqtidorli yoshlarni shakllantirish maqsadida “Ustoz – shogird” tizimini yanada rivojlantirib borish taqozo etiladi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yoshlarning ta’lim olishida yaratilgan sharoitlar jahon standartlariga to‘liq javob bera oladi. Bulardan samarali foydalanish har bir yosh avlodning yetuk kadr bo‘lishi va kamol topishi uchun yordam beradi. Ayniqsa, ta’limning uzviyligini ta’minlash orqali “maktab-texnikum-institut” tizimi maktab o‘quvchilarida kasbga qiziqish uyg‘otibgina qolmay, ularda shu kasb bo‘yicha ma’lum bilimlar va ko‘nikmalar hosil bo‘lishiga erishilmoqda. Pirovardda bunday hamkorlik maktab o‘quvchilarida kasb tanlash imkoniyatini beribgina qolmay, balki bu orqali maktabni tugatib, o‘zi qiziqqan soha bo‘yicha kolleжда o‘qishi hamda shu

soha bo‘yicha institutda bilimini oshirishi bilan yetuk mutaxassis bo‘lishiga erishiladi. Albatta bunday bilimli kadrlar kelajakda sohani rivojlantirishga katta hissa qo‘shadilar deb o‘ylayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOT:

1. Sh.Mirziyoyev. YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASI 2022 yil
2. Sh. Mirziyoyev. MILLIY TARAQQIYOT YO'LIMIZNI QATIYAT BILAN DAVOM ETTIRIB, YANGI BOSQICHGA KO'TARAMIZ 2020 yil
3. To‘xtapo‘lat Risqiev. Barkamol avlod orzusi. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. 2000 y.
- 4.Khasanov I, Kuchkarov J, Nuriddinov Kh 2020 IOP Conference Series: Materials Science and Engineering 883(1) 012174
5. IS Hasanov, JJ Kuchkarov, K Sobirov. Improving the Efficiency of the Base Leveler in the Current Leveling of Crop Fields. Eurasian journal of mathematical theory and computer sciences. 2021/9/18.
6. KJ Jalilovich. Current And Capital Leveling Methods And Their Use. International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology. 2021/6/9